



G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIK CHIZIG'I

Odilov Furqat Umarbekovich

T.f.f.d., (PhD) v.b. Dotsent

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Askarov Xasanjon Abduqaxorovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti. Katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada keramik g'ishtlar ishlab chiqarish chizig'i uchun uskunalri klasifikatsiyasi turlari, ishlash funksiyalari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Qurilish, chiziqli, keramik, g'isht, press, mashina, jixozlarnilar, hom-ashyolar, ish unumdorligi, klasifikatsiyasi, energiya, tejamkorlik, qurilma.

Аннотация: В данной статье написано о классификации видов оборудования, эксплуатационных функциях линии по производству керамического кирпича.

Ключевые слова: Строительство, линия, керамика, кирпич, пресс, машина, оборудование, питание, производительность, классификация, энергетика, экономика, устройство.

Abstract: In this article, it is written about the types of equipment classification, performance functions for the production line of ceramic bricks.


Key words: Construction, line, ceramic, brick, press, machine, equipment, food, productivity, classification, energy, economy, device.



Kirish

Qishloq joylarida nafaqat zamonaviy va qulay kattejar qurish, ayni vaqtda bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari, musiqa vasan'at maktablari, sport inshootlari tibbiyot muassasalari, xizmat ko'rsatish ob'ektlari, keng va ravon yo'llar qishloq aholisining qulay va munosib hayot qurishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni o'z ichiga olgan zamonaviy va obod qishloqlarni barpo etish ko'zda tutilmoqda. Yuqoridagi ustuvor vazifalarni bajarish qurilish materiallari ishlab chiqarish takomillashuviga ham bog'liq. Oddiy mahsulot hisoblangan shu g'ishtning qimmati nimada? Bu savolga javob bermoq uchun mamlakatimizning tashqi qiyofasini Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy va navqiron go'zal shaharlarni hayotimizni bezab turgan qulay, shinam va ko'rkam turar joy binolarimiz tassavur qila olmasligimizni esga olish kifoya.

Xozir g'ishtning o'ta pishqlik, izolyator va yarim – o'tkazuvchanlik, radiatsiya va har xil muhitga chidamlilik, serg'ovaklik, issiqlikni kam o'tkazish tovushni yutuvchanlik singari xususiyatlari aniqlanib ulardan texnika maqsadlarida foydalanilmoqda.



1-rasm. G'isht ishlab chiqarish texnologik chizig'i



Adabiyotlar tahlili

Asosiy xom-ashyo hisoblangan gil tuproq avtosamosvallar yordamida g'isht zavodining tuproq skladiga olib kelinadi, skladdan tuproq buldozerlar yordamida tuproq zapaschi to'ldiriladi. Tuproq zapaschida olib kelingan tuproq ozgina kamaytiriladi. Tuproq zapaschidan tuproq ekskavator va lentali konveerlar yordamida bunkerga tashlanadi. Unga tuproq yumshatgich o'rnatilgan.

Yuklagich yordamida ko'mir, maydalash bo'limidagi qabul qilish bunkeriga uzatiladi. Maydalash birin – ketin boshlanadi. Valikli tishli maydalagichdan, keyin silliq ikki valikli maydalagichdan o'tib ta'minlagichga keladi.

Tuproq bilan ko'mir ta'minlagich yordamida bir xil belgilangan miqdorda lentali konveer yordamida valikli tosh ajratgichga uzatiladi. Bu mashina tuproq tarkibidagi toshlarni, maydalanmaydigan jimmlarni chiqarib tashlaydi va tuproqni maydalaydi. Valikli tosh ajratgichdan chiqqan tuproq bilan ko'mir qo'shilmasi aralashtirgichga beriladi. U erda quruq aralashtiriladi.


Undan chiqqan ko'mir va qum aralashmasi xo'l xolatda aralashtiruvchi mashinaga beriladi va bu erda suv qo'shib abdan aralashtiriladi va loy xoliga keltiriladi. Namlangan loy massasi konveerlar yordamida formalovchi bo'linga o'tkaziladi, bu erda mayda zarracha xosil qiluvchi valikli maydalagichga boradi u erda maydalaniblentali pressga beradi.

Xulosa

Asosan g'ishtni loy xolatdan formaga keltiruvchi mashina lentali press xisoblanadi. Lentali pressdan bruss xolatdagi chiqqan maxsulot avtomat qirg'ichlar yordamida qirqilib lentali konveer yordamida avtomat taxlagichga yuboriladi. Avtomat taxlagich yordamida xom g'isht vagonchalarga yuklanadi. Yuklangan vagonchalar, avtomat tashigich yordamida, uzatuvchi telejkaga beriladi. Bu telejka yuklangan vagonchalarni tunelda quritish kamerasiga olib boriladi. Bu quritgich kamerasida xom va xo'l g'isht 30° S



temperaturada quritiladi. Quritish muddati 24 soat. Qurigan g'isht vagonchalar bilan birgalikda uzatuvchi telejka yordamida olib chiqilib vagonchalar bo'shatilib, olingan g'ishtlar vagonlarga yuklanib elektr tashigichlar yordamida tunelli cheklar olidiga olib kelinadi. Olib kirilgan vagonlardan pech ichiga yashxilab taxlanadi. Pechning xamma kameralari g'isht bilan to'lgandan keyin pechga issiqlik beriladi. Issiqlik manbai sifatida tabbiy gazdan foydalaniladi. G'ishtning pishish temperaturasi 1050°C bo'lib, 32 soat mobaynida pishirish davom ettiriladi, pechdan chiqqan tayyor g'isht uzatuvchi telejkaga yuklanib, telejka yordamida omborga keltiriladi. Bu erda vagonlar bo'shatilib g'ishtlar kichik padonlarga taxlanib kranlar yordamida mashinalarga yuklanibistemolchilarga yuboriladi.



2-rasm. G'isht qoliplovchi vakum press



ADABIYOTLAR:

1. Asqarov, X. A., Asqarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, USO (2021). Bino va inshootlarni qurishda g'ishtlarning tahlili. *Ilmiy taraqqiyot* , 1 (6), 1112-1116.
2. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). "LEGO" G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. 21-asrda innovatsion ta'limning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada (1-jild, №7, 102-106-betlar).
3. Asqarov, X. va Mamajonov, M. (2023). Inshoot va binolarga zilzila ta'siri yuklar tahlili. *Oltin miya* , 1 (6), 12-14.
4. Askarov, X. (2023). SILIKAT MATERIALLARDAN TAYORLANGAN G'ISHTLARDAN BINO INSHOOTLARINI QURISH TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(8), 162-164.
5. Askarov, X., & Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 55-58.
6. Mirzayev, B. O., & Askarov, X. (2023). METHODS FOR CALCULATING BRICK CONSUMPTION WHEN BUILDING WALLS FROM SILICATE AND CERAMIC BRICKS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(08), 1-14.
7. Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQINDI TOSHLARDAN LEGO G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* , 3 (10), 40-43..
8. Raximov, R. A., Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQINDI TOSHLARDAN PRESS USULIDA KONSTRUKTIV MUSTAXKAMLIKKA EGA BO'LGAN G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI* , 2 (9), 11-15.
9. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). "LEGO" G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. 21-asrda innovatsion ta'limning



o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada (1-jild, №7, 102-106-betlar).

10. Asqarov, X. va Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *OLTIN MIYA* , 1 (5), 55-58.
11. Askarov, X. A., & Maxmudov, S. M. (2022, November). QURILISH SANOATIDA KERAMZIT BETON TO'SQICHLAR TAYYORLASH INNOVATSION TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 10, pp. 99-102).
12. X, F., Sh, R., Tashtanova, M., Yalgashev, O., & Adkhamova, G. (2019). Fosfogipsning qurilish xususiyatlari, to'g'onlarni o'rab turgan loy qoldiqlari uchun material sifatida. *Fan, muhandislik va texnologiya sohasida ilg'or tadqiqotlar xalqaro jurnali* , 6 (7), 10270-10277.
13. Tojiboyev, B. T., & qizi Askarova, M. B. (2023). ARCHITECTURE AND LANDSCAPE OF FERGANA CITY. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 403-408.
14. Tojimatovich, K. I., Abdukahorovich, A. H., & Behruz, K. (2024). VINEGAR ACID REGENERATION MAKING COLUMN APPARATUS PLATES MODERNIZATION. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 53-55.
15. Abduqaxorovich, A. X., Tojimatovich, K. I., & Islomiddin, I. (2024). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF PLATE COLUMNS. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 49-52.